

**AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH - DAVR TALABI**

Jòrayeva Zebiniso Mòsinovna

Surxondaryo viloyat Termiz shahar

6- mакtab.Boshlangich sinf oqituvchisi

Normatova Sevara Baxodir qizi

Surxondaryo viloyat Termiz shahar

6- maktab Jismoniy tarbiya fani oqituvchisi

Ergasheva Faroǵat Sodiqovna

Surxondaryo viloyat Termiz shahar

6-maktab Boshlangich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, ulardan ta'lif sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lif shunchalik takomillashadi, albatta. Bu esa oz ornida pedagogning kasbiy kompetentligini oshiradi.

Kalit so'zlar: multiplikatsiya, informatsion texnologiya, innovatsion, kommunikatsiya, axborot vositalari, adabiyotlar fondi, elektron kutubxona, multimedia, vosita.

Axborot asrida fan-texnika taraqqiyoti naqadar yuksak bosqichga chiqdi. Shunga monand barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Bugun biror soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jumladan, yosh avlodga ta'lif-tarbiya berishda ham u muhim omillardan biriga aylanmoqda. Elektron aloqa vositalari, internet, aynan ommaviy axborot vositalarining misli korilmagan sur'atlar bilan rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet son jihatdan beqiyos o'sdi, sifat jihatdan sezilarli ozgarishlar yuz bermoqda. Kompyuter, faks, uyali telefon, parabolik antenna, elektron pochta kabi texnik mo'jizalar ommaviy axborot vositalari rivojiga katta ta'sir korsatmoqda. Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, ma'naviy immuniteti kuchli, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ta'lif jarayonida masofali, ya'ni internet, televidenie, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari oz samarasini korsatmoqda. Mutaxassislar fikricha, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni diqqatini jamlashga, qiziqtirishga, mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga orgatadi. Ta'lif jarayonida elektron darsliklar qanchalik mukammal bo lsa, u yosh avlodning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun elektron multimedia sirlarini nazariy jihatdan puxta organib, amaliyotda yetarli darajada qollash maqsadga muvofiqidir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lif jarayonida oziga xos talablar paydo bolmoqda. Bu talablar bevosita elektron ta'lif bilan chambarchas bog'liqdir. Elektron ta'lif barcha ta'lif sohasini sifat jihatdan yanada yuqoriroq pag'ona ko tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, o quvchiga o quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega boladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lqa, ilg'or usul O'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Ular dars jarayonida o sha mavzularni puxta ozlashtirishlariga xizmat qiladi.

Dars jarayonida a'yon bolishicha, elektron ta'lif oqitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan ozgartirmoqda. Bu o'quvchilarning individual qobiliyatlarini, ularning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga, ilmiy dunyoqarashiniva tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam bermoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchilarni qiziqtirishga, faolligini oshirish va hayratlantirishga imkoniyati cheksizdir.

Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish - elektron multimediali ta'lif jarayonida foydalanishning istiqbolli yonalishlaridan keng foydalanish yo'lga qoyilmoqda:

Multimedia - (ko'p axborotli) elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch olchamli grafik korinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda ifodalangan darslik, (elektron darslikning III toifasi) hisoblanadi. Multimedia, animatsiya va videoroliklar, virtual laboratoriya ishlari va fizik jarayonlarni modellashtirish imkoniyati - elektron darsliklarning xarakterli xususiyatlaridan eng muhimlari bo lib, ularda harakatning mavjudligidir. Harakat (animatsiya) esa multimedia, multiplikatsiya usullaridan foydalanib amalga oshiriladi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni, masalan, fizikadan ichki yonuv dvigateli tsilindridagi porshenning harakati, elektr sxemalarini yig'ish jarayoni, kimyoviy moddani boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishish jarayonida molekulalarning dinamikasini kuzatish, informatikada blok sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animatsiya ko'rinishda tasvirlash imkoniyati, astronomiyadan kunning tunga aylanishi yoki chizmachilikdan proektsiyalash usullari, kesim va qirqimlar,



tasvirlarni almashtirishga oid mavzularni korish imkoniyatlari elektron darslikning kuchli pedagogik vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Multiplikatsiya - bu harakatni sekin-asta ayrim-ayrim qismlarga ajratib, kerak bolsa kadrni to'xtatib hodisa va jarayonlar namoyish qilinadigan uslub bo'lib, uning afzallik tomoni shundaki, biror jarayonning mohiyatini soz bilan ifoda etib bolmaydigan hollarda, ya'nii abstrakt tushunchalarni oquvchilar tomonidan osonroq tushunib olishlari bilan izohlanadi.

O'quv axborotlarni izlab topish erkinligi bilan (matnni o'qish, uning ustida ishslash, axborotlarning boshqa manbalariga chiqishi va h.k.) elektron darslik an'anaviy darsliklardan farq qiladi. Shu boisdan elektron darslikning yuqorida korsatib otilgan xususiyatlariga qarab unga ta'limgan interfaol vositasi sifatida qaraladi.

Elektron multimedia an'anaviy darslikka qaraganda oquv materiallarini namoyish qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Elektron multimediali ta'lim tinglovchilarining koproq mustaqil ishchlarni uchun moljallangan didaktik funksiyalarini bajarish bilan bir qatorda, oquv jarayoniga qoyilgan barcha talablarga javob beradi.

Elektron ta'limgan bosh maqsadi - asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradi, oddiy yo'nalishlardagi media axborot tilini o'rganish, o'quvchining badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, gegamatnlarni qabul qilish, o'rganish va malakali tahlil etish konikmasini shakllantirishdan iborat. Axborot sohasidagi globallashuv yangicha dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratmoqda. Zamonaviy bilimlar takomillashgan sari axborotlardan to'g'ri va samarali foydalanish muammosi paydo bolmoqda. Hozirgi kunda axborotlarning mazmunini ham, ularni ommaviy axborot tarmoqlari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilishning deyarli imkon qolmayapti. Demak, bu masalada qandaydir chalkashliklarga, xatoliklarga yo'1 qo'ymaslik uchun mukammal tizim zarur boladi. Bu tizim - o'sha axborot tarqatuvchi hamda uning iste'molchisi qay darajada bilimli, saviyasi yuksak va ularning bir-birlarini to'g'ri anglashi bilan bog'liq boladi. endilikda ayrim mutaxassislar oquvchi ongida axborotni tog'ri shakllantirish, ta'bir joiz bo'lsa, uni tizimli ravishda tartibga solish yo'llari izlamoqdalar. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim amaliyotida bu sohadagi izlanishlar o'tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Bu pedagogika fanida o'ziga xos yo'nalish - media ta'lim paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Pedagog olimlar, mediata'lism - o'quvchilarga beriladigan dars, bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bolishini ta'mirlovchi ta'lim usuli ekanini e'tirof etganlar. O'quvchi oqituvchining og'zaki ma'rzasidan kora, korgazmali vositalardan foydalanib tushuntirishidan koproq ta'sirlanar ekan. Ana shunda ular



yetkazilayotgan mavzuni koproq yodida saqlab qoladi. O'quvchilarda bunday darslarga nisbatan qiziqish yuqori darajada boladi. Demak, deyarli barcha fanlarni o qitishda bunday ilg'or usuldan foydalanish foydadan xoli bolmaydi.

Media-ta'lism (ing. media education) — pedagogikadagi yo'nalish, ommaviy axborot vositalari (matbuot, televidenie, radio, kino, video va h.k.) qonuniyatni o'rganadi.

Media-ta'lism O'quvchilarga ta'lism berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Innovatsion pedagogika - yangi pedagogik texnologiya hisoblanadi, u ommaviy axborot vositalari yordamida o quvchilarni ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi. Innovatsion pedagogika resurslariga internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radio lavhalari, kino, video, audio materiallari kiradi.

Davrimiz taraqqiyotiga hamohang ravishda ilm xazinasi yanada boyib, yoshlarning intellektual salohiyati ortib bormoqda. Axborotlashtirish jarayonida chinakam axborot jamiyati vujudga kelganini izohlashga hojat qolmagan. Shunga yarasha texnologiyalar soni o sib bormoqda. Bunda tasvir, ovoz va matn tom ma'noda uyg'unlashib, audiovizual madaniyati o ziga xos ravishda takomillashib bormoqda. Endi undan ta'lism sohasida ham keng foydalanish davr taqozosiga aylandi. Ko pchilik o'quvchilar gohida noan'anaviy usulda otiladigan darslarni qiziqish bilan tinglaydilar. Axborot texnologiyalari yordamida otiladigan darslar jarayonida ana shunday usullardan foydalanishga imkon yaraladi. Bu ta'lism tizimini ham yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ya'ni, globallashuv davri hamda unga monand axborotlashgan jamiyatda yosh avlodni tog'ri tarbiyalash, hayotga tayyorlash, turli axborotlarni qabul qilish, yaxshi va yomonni, oq bilan qorani farqlay olishga o'rganishdir Oquv mashg'ulotining yagona manbai hisoblangan o'qituvchining roli ozgaradi va u yangi qiyofa oladi bunda pedagog oquv ma'lumotlarni uzatish uchun, oquv materiallarni qaytadan aytib berish uchun ortiqcha vaqt sarf qilmaydi. Buning o rniga ijodiy va boshqaruv masalalarni hal etishga vaqt topadi. Ammo doimiy izlanishda boladi. Oziga xos va mustaqil fikrga ega, original g'oyalar tashabbuskori. Bilim olish va ta'lism berishda axborotning zamonaviy kommunikatsiyalaridan keng foydalantiradi. Shu jumladan elektron ta'lism imkoniyatlarini qollaydi. Jahon ilm-fani yutuqlari haqida axborotga ega analistik tafakkurli shaxs hamdir.

Ta'kidlash joizki yangi shariotlarda o'qituvchining vazifasi haqiqatdan o'zgarishiga qaramasdan pedagog ikkinchi planga otib qolmaydi, baribir uning roli dars olib boruvchi rolida qoladi. Kompyuter bir olam funksiyalarini bajarish mumkin biroq oqituvchi tomonidan barcha oquv guruhini ham, aniq ta'lism oluvchini ham, ta'lism berish va tarbiyalashini boshqarish vazifasini saqlab qoladi. Ma'lumki pedagogning



funktsiyasi o'rganilayotgan predmetga va konkret o' quv mashg'ulotini otkazish metodikasiga bog'liq.

So'nggi yillarda yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va tarmoq aloqasidan foydalanishning kopayishi bilan bilimlarni tarqatishda internet tizimi fundamental rol kasb etmoqda. Tarmoq orqali oqitishga moljallangan masofali oqitish kurslari bugungi kunda keng tarqalmoqda, ular hozir oddiy oquvchini o qitishdan diplomli mutaxassisni tayyorlash darajasigacha qollanilmoqda. Zero, internet tizimi ta'lif jarayoniga juda katta ta'sir ko'rsata oladigan omil hisoblanmoqda. U o'rganish va tadqiqotlar olib borish uchun ulkan ma'lumotlar omboriga ega bo lib, ta'lif oluvchi uchun turli mazmundagi ma'lumotlarni yetkazib berishi mumkin. Uning yordamida oquvchilar bir-biri va oqituvchilar bilan muloqot qilishlari hamda ma'lumotlardan hamkorlikda foydalanishlari mumkin. Shu orinda bir ijodkor sifatida aytishim joizki, axborot bazasini yaratishda eng muhim ham, mas'uliyatli, ta'bir joiz bolsa, mushkul jihatli ham shu: axborot yozishda savodli bo lish!

Elektron oquv materialini tayyorlash uchun multimediali vositalardan foydalaniladi. Multimediali vositalar deganda esa, bir vaqtning ozida harakatlanadigan tasvir, videofil'm, animatsiyali grafik obrazlar, matn va tovushlar ustida amal bajarishga imkon beradigan interfaol vositalar tushuniladi. Multimediali oquv materiali bosma material, tovushli, videoli va animatsion elementlarni ozida mujassamlashtirgan oquv materialidan iborat bolib, tabiiyki, bu atama kompyuter xotirasidagi yoki disklardagi ma'lumotlarga nisbatan ishlataladi.

Har bir mashq organilayotgan mavzu mazmunini oydinlashtirish bilan birgalikda oquvchini yangi bilim va undagi ichki mantiqiy bog'lanishlar bilan tanishtiradi, fan boyicha olgan nazariy bilimlarini tizimlashtirib, mustahkamlaydi va oz mazmunini hayot voqealari bilan bog'lab tushunishga qiziqtiradi.

O'quvchining bilim va malakalarni qanchalik darajada o zlashtirishi o quv materialini bayon qilishda foydalaniladigan ko'rgazma vositalarga ham bog'liq. Zero, Ya.A.Komenskiy korgazmalilikni «o'qitishning oltin qoidasi» deb bejiz aytmagan.

Ko'rgazma vositalar oqituvchi uchun o quvchining bilish faoliyatini boshqarish quroli, oquvchi uchun bilim manbai, tasavvur, tushuncha, qonuniyat va nazariyani o zlashtirishga yordam beradigan vosita vazifasini bajaradi. O quv jarayonida qollaniladigan pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan talablarga kora bu tasvirlanadigan umumiyl axborot hajmining 40-90 % igacha oshirilishi lozim.

Illyustratsiyadan foydalanish, ya'ni rasm, fotosurat va videotasvirlardan foydalanish kompyuterda obyektni o'rghanish jarayonini jonlantirib, ta'luming boshqa

usullaridan ustunligini ko'rsatadi. Pedagogik dasturiy vositaning namoyish qilish qismi oquv materialining ma'lum qismlarini korgazmali yetkazib berishga, yangi tushunchalarni tasvirlab tushuntirishga, kuzatish qiyin bo lgan hodisa va jarayonlarni ko rsatishga qaratilgan. Namoyish jarayonidagi teskari aloqa ozlashtirishni osonlashtiradi va oquvchilar faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o qituvchilarning o rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalar mazmunidagi bilimlar bilan cheklanilmasligi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda ko plab gazeta, jurnal, axborotnama-byulleten, radio, televideniey, axborot agentliklari, internetda veb-saytlar faoliyat ko rsatmoqda. Ulardan ta'lim sohasida qanchalik samarali foydalana olsak, mediata'lif shunchalik takomillashadi, albatta.

Adabiyotlar:

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. - Toshkent: Fan, 2017.
2. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. -T: "Fan"nashriyoti. 2018 yil., 123 bet.

